



O'ZBEK VA QORAQALPOQ XALQLARI MADANIYATIDA NOTIQLIK SAN'ATI

Jo'raqulova Hulkar

*Navoiy davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
Qoraqalpoq tili va adabiyoti
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ifodali o'qish – xalq san'ati. Nutq madaniyati tarixiga nazar solsak, avvalo, xalq og'zaki ijodida ifodali o'qish san'ati shakllanganini ko'rish mumkin. Xalq yaratgan asarlar donishmandlik va san'atkorlik mahsuli nutq madaniyatining shakllanishiga xizmat qilgan. Maqolada nutq madaniyatining shakllanish omillari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarix, folklor, madaniyat, ifodali o'qish; lingvokulturologik jihatlar.

Abstract: Expressive reading is a folk art. If we look at the history of speech culture, we can see that the art of expressive reading was formed in folk oral art. The works created by the people served the formation of speech culture, the product of wisdom and artistry. The article discusses the factors of speech culture formation.

Keywords: history, folklore, culture; expressive reading; linguistic and cultural aspects.

Аннотация: Выразительное чтение – народное искусство. Если обратиться к истории речевой культуры, то можно увидеть, что искусство выразительного чтения сформировалось в народном устном творчестве. Произведения, созданные народом, служили формированию культуры речи, продукту мудрости и артистизма. В статье рассматриваются факторы формирования речевой культуры.

Ключевые слова: история, фольклор, культура; выразительное чтение; лингвистический и культурный аспекты.

Ifodali gapirish yoxud ifodali o'qish shunchaki o'z-o'zidan shakllanib qoladigan jarayon emas. Buning uchun, dastavval, insonning o'zida tug'ma iqtidor, qobiliyal bo'lishi lozim. Lekin hammada ham nutq madaniyati talab darajada shakllanavermaydi. Nutq madaniyati tarixiga nazar solsak, avvalo, xalq og'zaki ijodida ifodali o'qish san'ati shakllanganini ko'rish mumkin.

Darhaqiqat, ifodali o'qish dastavval xalq san'ati hisoblangan. Chunki badiiy adabiyot xalq og'zaki ijodi shaklida paydo bo'lган. Xalq yaratgan asarlarining keng tarqalishida esa og'zaki ijrochilik san'ati muhim ahamiyat kasb etgan. Xalq og'zaki ijodi namunalarini (qo'shiq, ertak, doston, qissa kabilarni) yaratgan xalq namoyandası – ertakchi, qissaxon, baxshi bir paytning o'zida ham ijodkor, ham ijrochi bo'lган. Asrlar davomida yaratilgan qoraqalpoq va o'zbek xalqlari og'zaki ijodida yaratilgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, qo'shiq va dostonlar og'zaki ijrochilik, ifodali





nutq san'ati tufayli bizgacha yetib kelgan. Jumladan, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan "Alpomish", "Oysuluv", "Shirin bilan Shakar", "Rustam", "Malika ayyor", "Ravshan", "Kuntug'mish" vb. kabi dostonlarda vatanga muhabbat, mardlik, chin sevgi, vafodorlik, dushmanlarga nisbatan g'azab, do'stlik kabi olıyanob g'oyalar tarannum etiladi. Qoraqalpoq adabiyotida bo'lsa "Qirq qiz", "Edige", "Qoblan", "Sharyar", "G`arip-ashiq", "Yusup-Zliyha", "Er Shora" v.b dostonlarni keltirib o'tsak bo'ladi. Biz qoraqalpoq va o'zbek xalqlarining tarixiy o'tmishi haqidagi badiiy yodnomalar-rivoyatlar va afsonalardan ajdodlarimiz ko'rsatgan buyuk qahramonliklar haqidagi tarixni; hayot haqiqatiga asoslangan, xayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo'g'rilgan ertaklardan odamlarga ibrat o'gitlarni bilib olamiz. Sharq xalqlari orasida qadim-qadimdan to'g'ri so'zlash va fikrni chiroylifi fodalash masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ajdodlarlarimiz so'z san'atining, ayniqsa, og'zaki ijrochilik san'atining inson ruhiga ko'rsatadigan ta'siriga qadim zamonlardan boshlab katta e'tibor qaratganlar. Pand-nasihat, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rifi va tanqidiga bag'ishlangan baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan 150-200, ba'zan undan ham ortiq misralargacha bo'lgan lirik, liro-epik she'rlar termalarda ham inson kamolotida odob-axloqning o'rni va ahamiyati tarannum etilgan.

Xalq og'zaki ijodining eng ommaviy janrlaridan biri bo'lib, nozik, mayin kinoya, qochiriqlar ishtirok etuvchi kulguli, kichik hajmli hikoyalar o'zbek folklorida latifa (xalq o'rtasida afandi deb ham yuritiladi) deb, qoraqalpoq xalqi da bo'lsa kuldirgi so'zlar yoki Qaraqalpaq xalqinin` asosiyligi ku`lgi so'z ustasi -Umrbek laqqi nomi bilan bog'lashadi, Umrbek laqqi XIX asrning ikkinchi yarmida hayot kechirgan va 75-70 yoshlar chamasida qaytish bo'lgan. Umrbekning laqabi «laqqi» bolib, bu so'z - ku`lgili so'z aytadigan odamlarga, o'z so'zi bilan kuldiradigan hazilkash so'z ustalariga tegishli. Umrbek laqqi tariyxda bo'lgan inson. Umrbek o'z davrining` olamga danqi ketgan, so'z o'yinida oldiga odam solmaydigan inson bo'lgan. Qoraqalpoqlar orasida aytildigan ku`ldirgi so'zlarning hammasi Umrbekning nomi bilan bog'liq.

Umrbekning har bir kulgili gapi bir sirli ma'no anglatadi

Xalq yaratgan asarlar qanchalik donishmandlik va san'atkorlik mahsuli sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, ularning og'zaki ijrochiligi ham shu qadar mahorat va san'atkorlikni talab qilgan. Qoraqalpoq va o'zbek xalqlarining tarixida yorqin iz qoldirgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, inson qalbidagi g'am-anduh, shodlik va





quvonch tug‘ularining badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan. Folklor namunalarini xalq san'atkori – qo‘sishchi, roviy, qissaxon, baxshi shunchaki jon. badiiy tasvir vositalarisiz, xilma-xil ovoz tovlanislilarisiz, shulnihsiz beta’sir ijro etganlarida edi, ehtimol bu asarlar uzoq saqlanib qolmagan bo‘lar edi.

Ifodali o‘qish, ayniqsa, asarning g‘oyaviy mazmunini chuqur tushunishda, badiiy xususiyatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Badiiy asarlarni ifodali o‘qish inson ongi va hissiyotiga ta’sir etib, axloqiy-estetik tug‘ularini shakllantirishga, ma’naviy olamini boyitishga xizmat qiladi. To‘g‘ri, g‘oyaviy-badiiy jihatdan mukammal yaratilgan har qanday asar og‘zaki ifodali nutqsiz, ovoz chiqarmasdan mustaqil o‘qilganda ham o‘zining axloqiy-estetik jihatdan ta’sir kuchini yo‘qotmaydi, insonni tarbiyalash vazifasi kamayib qolmaydi. Lekin ifodali o‘qsh jarayonida maffunkor ohang, xilma-xil ovoz tovlanishlari, jozibador intonatsiya kabi vositalar badiiy asarning emotsiyonal ta’sir kuchini yanada oshiradi, eshituvchiga beqiyos zavq-shavq bag‘ishlaydi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, so‘z san’ati bilan shug‘ullanuvchi kishilar, ayniqsa, inson ta’lim-tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan muallimlar notiqlik san’atini, ifodali nutq mahoratini puxta egallagan bo‘lishlari zarur.

Lekin har bir kishi o‘z nutqi ustida muntazam ishlaslli, to‘xtovsiz mashqlar qilishi natijasida ifodali nutq qobiliyatini shakllantirishi mumkin. Ko‘rib turganimizni, his-tuyg‘ularimizni,tassavurimizdagи o‘ylarimizning barchasini so‘z orqali ifoda etamiz. So‘zlash,gapirish biz insoniyat uchun eng ulkan boylik va bizning hayvonlardan farqimiz ham so‘zlay olishimiz bilan farq qiladi.To‘g‘ri hamma insonga ham gapirish qobiliyati berilgan,lekin,so‘zni chiroyli qilib yetkazib berish,so‘zamon bolish,ulkan yig‘ilishlarda chiroyli nutq taqdim eta olish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Biz nutqimizni yanada boyitishimiz uchun maqollardan, hikmatli so‘zlar, ibo so‘zlardan foydalansak, grammaticalik, leksika, semantik normalardan va stilistik normalardan to‘g‘ri foydalanib bilsak nutqimiz yanada ravon, aniq va so‘zlovchi va tinglochi o‘rtasidagi tushunmovchiliklar bo‘lmaydi.

Nutq madaniyati bugungina paydo bo‘lib qolgan emas. G‘arbda ham Sharqda ham unga necha asrlar oldin ham ehtiyoj bo‘lgan. Nutq madaniyati avvalo to‘g‘ri adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda so‘zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutq madaniyati ko‘p jabhalarni o‘z ichiga oladi. U ikki inson o‘rtasidagi suhbatlashishdan tortib, omma oldida bayonotlar so‘zlashgacha. Bunday hollarda nutqning aniqliligiga e’tibor





berishimiz kerak. Har bir gapi rayotgan gapimizga ulkan mas'ulyat bilan qarashimiz kerak. Chunki, insonning gapi rayotgan gapidan uning ichki dunyosi, fahm-farosatini qay darajada ekanligini bilsa bo'ladi. Yetarlicha bilimga ega inson esa doim gapi rayotgan gapiga e'tiborli bo'ladi. Bejiz dono xalqımız "Yetti o'lchab bir kes"—deb aytmagan. Nutq so'zlashdan oldin gapimiz aniq, bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi va qo'limizda yetarlicha materiyallar bo'lib fikrimizni to'g'ri va izma-iz gapi rayishimiz kerak. Agar mantiq va izchillik bo'lmasa tinglovchiga nutqimizning to'liq yetib bormasligi yoki tushunmovchiliklarga olib keladi.

Bugungi kunda ham nutq madaniyatini shakllantirishda badiiy asarlarni mutolaa qilish asosiy rol o'ynaydi. Ifodali o'qish adabiy asarni tushunarli va ta'sirchan o'qishdir. Asarning mazmun-mohiyati, qahramonlar xarakter xususiyati, maqsad va intilishlari chuqur o'rganilgandagina og'zaki talqinda asar ruhiga mos ohang va intonatsiya paydo bo'ladi. Badiiy asarlarni mutolaa qilish o'quvchining dunyoqarashini kengayrirish barobarida adabiy tilni puxta o'zlashtirishga, ifodali o'qish san'atini egallahsga yaqindan yordam beradi. Ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u insonda tuyg'u va kayfiyatlar hosil qiladi, aniqrog'i, voqelikning his-tuyg'uli qiyofasini yaratadi. Ifodali o'qish jarayonida asar voqealari "jonlanadi", qahramonlar "tilga kiradi".

Sharq xalqlari orasida qadim-qadimdan to'g'ri so'zlash va fikni chiroyli ifodalash masalalariga katta e'tibor qaralilgan. Donishmandlar nazdida, inson so'zi bilan taniladi, axloqi bilan maqtaladi. Binobarin, nutq madaniyatiga rioya qilish yosh avlodning shaxs sifatida kamol topishida ham ta'siri beqiyos.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
2. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki xrestomatiyasi. T.2008.
3. Masharipova Z. Ifodali o'qish praktikumi. Darslik. T. 2011.

